

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH  
SAVODXONLIGI DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV**

**OSIYO XALQARO UNIVERSITETI O'QITUVCHISI  
TURSUNOVA ZARINA NE'MATOVNA  
OSIYO XALQARO UNIVERSITETI 2-BOSQICH TALABASI  
BOBOQULOVA MAHFUZA MUXTOROVNA**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kompetensiyaviy yondashuv haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, onatili va o'qish savodxonligi, nutq, grammatika, yosh xususiyatlar.*

Kompetensiya - bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llash ko'nikmasi Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlarining tarkibiy qismlari bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi tayanch o'quv reja o'quv dasturlari baholash tizimi. Ona tili boshlang'ich sinflarda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur. Ona tili fanining o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Boshlang'ich ta'limda - o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning maqsadi - o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini o'rgatishning lingvistik asoslari Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

hal qilishda maktab-da ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o'quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): mavzu doirasida o'qituvchi nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; ko'rgan rasmlari va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan o'qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi. Nutq va matnning gaplardan tuzilishi, matnni mazmunan bog'langan gaplardan tuzilishini aytib bera oladi; kishilarning his-hayajonini bildirgan gaplarni, gaplarni mazmuniga ko'ra farqlaydi, oxiridagi nuqta, so'roq va undov belgilariga qarab o'qiy oladi, ajrata oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi; gapni bosh harf bilan boshlab yoza oladi, rasmlarga qarab gap tuzadi va yoza oladi, harflarni yozuvda imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda harflarni bir-biriga ulab, ko'chirib, namunaga qarab yoza oladi. Bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, 15-20 so'zli diktant yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila oladi, so'zlarni talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda bo'g'inlab ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

Boshlang'ich sinflarda grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq davom etadigan va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ancha murakkab jarayondir. Shunga ko'ra, o'qituvchi boshlang'ich sinflarda tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayoning psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy faoliyatini rivojlanish darajasini aniq bilib olishi zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanida o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini har jihatdan shakllantirish ta'lim sohasidagi barcha pedagogik fanlar bilan bog'langan holda amalga oshiriladi va ana shu fanlarni to'liq o'rganishga tayyorlaydi. Bu jarayonda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga barkamol shaxsni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Barkamol shaxsni shakllantirishda albatta, o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish katta samara beradi.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

Mamlakatimiz kelajagini qurishda eng katta berilayotgan e'tibor maktablarimizning infratuzilmasi, ta'limda sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilmoqda. Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ham o'rni, roli benihoya katta. Shuning uchun bugungi kun o'qituvchisi zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi va ayni damda ushbu texnologiyalarni amaliyotga tadbiq eta bilishi juda muhimdir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi dunyoqarashini o'stirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon eta oladigan, xalqaro tadqiqotlarda munosib o'rinlarni egallay oladigan, erkin ishritirokchiga aylantirish, bugungi zamon talabining eng muhim masalalaridan biridir. Buning uchun esa ular ilm olmog'i, tinmay o'qishi, o'z ustida ishlashi va eng asosiysi, yaqin do'sti kitob bo'lmog'i joizdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Methodological Foundations of Teaching the Science of " Education" in Primary Grades  
HN Bahodirovna  
American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1
2. THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES  
N Hojiyeva  
Modern Science and Research 2 (10), 855-857
3. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI  
HN Bahodirovna
4. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O'QITISHNING ASOSIY METOD VA VOSITALARI  
HN Bahodirovna
5. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN 1 (5), 332-338  
MODERN METHOD IN TEACHING MOTHER LANGUAGE LESSONS-  
USING THE CACOGRAPHY METHOD  
NB Hojiyeva  
American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1
10. INCREASING THE INTEREST OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING TECHNOLOGY IN PRIMARY GRADES  
NB Hojiyeva  
American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

6. Methodological Principles of Teaching The Science of" Education" In Primary Classes

HN Bahodirovna

American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 1

7. Zarina Tursunova, [04.01.2024 13:52]

Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 494-499.

8. Zarina Tursunova, [04.01.2024 13:52]

Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 468-472.

9. Zarina Tursunova, [04.01.2024 13:52]

Ne'matovna, T. Z. (2023). "BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI" MAZMUNI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 324-331.

10. Tursunova, Z. (2023). USING INNOVATIVE AND INTERACTIVE METHODS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY CLASSES. Modern Science and Research, 2(10), 777-779.

11. Ne'matovna, T. Z. (2023). Boshlang'ich Sinflarda Ot So'z Turkumini Izchillikda O'rgatish Metodikasi. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 389-391.

12. Ne'matovna, T. Z. (2023). BOSHLANG'ICH SIFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI.

13. Tursunova, Z. (2023). METHODOLOGY OF MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS